

## TASVIRIY SAN'AT FANI BOYICHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI

Xoliqova Nazokat Anvarjonovna

Andijon viloyati Oltinko'l tumani 70-IDUM

Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda estetik sikliga kiruvchi muhim fanlardan biri bo'lgan tasviriy san'atdan talaba yoshlarga ta'lif berishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalariga qaratilgan. Shuningdek unda mustaqil bilim olishda axborot texnologiyalarining muhimligi, yoshlarning dunyoqarashiga mos manbaalarni zamonaviy ko'rinishdagi, interaktiv va kreativ tarzda axborot texnologiyalarida tayyorlash hamda uzatishning bugungi kunda dolzarb masalalardan iboratligi xaqida boradi.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, aqliy hujum, pedagogika, klasster, kreativ, interaktiv debatlar, kontent, mustaqil ta'lif, elektron resurs va elektron test.

Hammamizga malumki tasviriy san'at yoki boshqacha aytganda rasm chizish va chizmachilik bo'yicha asosiy tushunchalar o'quvchilarga kichik sinfdan boshlab o'rgatishadi. Shuningdek biz maktab o'quvchilariga tasviriy san'atda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan ranglar, bo'yoqlar va akvarel bo'yoqlari bo'yicha asosiy tushunchalarni o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalarining inter faol usullaridan foydalanib ta'lif sifatini oshirishga to'xtalib o'tamiz.


Maktab o'quvchilarga tasviriy san'at bo'yicha ranglarning ahmiyatini akvarel bo'yoqlari misolida o'rgatish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga akvarel bo'yoqlaridan foydalanish to`g`risidagi bilimlarni berishda oxirgi vaqtarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda, shuning uchun yangi pedagogik texnologiyalarining inter faol usullariga bag`ishlangan adabiyotlar hozirgi vaqtida yetarli darajada bo'lib, ulardan juda keng foydalanimoqda. Yangi pedagogik texnologiyaning interfaol – innovatsion usullariga quyidagilar kiradi:

- Aqliy hujum,
- Rolli o'yinlar,
- Klasster,
- Taqnidiy tafakkur,
- Bumerang,
- Bingo,
- Debatlar,
- Taqqoslash,

Muammoli o'qitish va rivojlangan mamlakatlardagi yana boshqa tasviriy san'atda akvarel bo'yog`idan foydalanish mavzusini o'quvchilarga o'rgatishda 7 – sinf o'quvchilari 2 ta kichik guruhlarga bo'linib, ulardan bittasi tajriba sinov guruhchasi, ikkinchisi esa an'anaviy dars o'tishadigan guruhchasi deb olinadi.

Tajriba sinov guruhchasi yangi mavzuni o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyaning interfaol – innovatsion usullaridan eng osoni —Klasster usuli tanlab olindi va mavzu bo'yicha material quyidagi tartibda o'rgatildi.

Tasviriy san‘atda akvarel bo`yog`laridan foydalanishda akvarel bo`yog`lari uchun foydalanilgan klaster usuli quyidagi 1-sxemada keltirilgan:




**Sxema:** Akvarel bo`yoqlarining turlari.

Akvarel bo`yog`larining o`rgatishda albatta ranglarni xususiyatlari tog`risida ham tushunchalar berish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Malumki, har qanday rang uchta xususiyatga ega: rang toni, yorug`langanligi va tozaligi. O`quvchilar akvarel bo`yog`laridan foydalanilganlarida albatta ranglar shkalasini yoki quyosh nurida qanday ranglar borligini bilishi kerak. O`quvchilarga quyosh nuriga ranglar turi yoki ranglar shkalasini o`rgatishda klasster usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Quyidagi sxemada tabiatdagi quyosh tarkibidagi ranglar turi yoki ranglar shkalasini o`rgatishda foydalaniladigan.



**Sxema:** Ranglar turi yoki ranglar shkalasi.

O`qtakazilgan tajribalardan shu hulosaga kelish mumkinki , o`quvchilarga quyosh nurining tarkibida 2-sxemada keltirilgan ranglar ham fizika darsida ham o`tishi to`g`risida aytish kerak, an`anaviy usulda o`tilgan mavzu materiallari o`quvchilar

tomonidan to`liq o`zlashtirilishi qiyinroq ekan. Tajriba sinov orqali yangi pedagogik texnologiyaning interfaol-innovatsion usullari, masalan klasster usulida o`tkazilgan darslarda talabalarning yangi mavzu materiallarini o`zlashtirishi 30-40 % gacha samarali bo`lar ekan. Chunki o`quvchi sxemalarni oson va yaxshi eslab qoladi. Demak, ta`lim sifatini oshirishda yangi pedagogik texnologiyaning interfaol-innovatsion usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasining —Ta`lim to`g`risidaǵi qonuni. Toshkent shahri 2020 yil 23-sentabr. URQ – 637.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi —O`zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta`lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirishni chora-tadbirlari to`g`risidaǵi PF-6108-sonli farmoni Toshkent. 6-noyabr 2020 yil.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi —Ta`lim – tarbiya || tizimini yanada takomillashtirish to`g`risidaǵi PQ-4884-sonli qarori. Toshkent. 2020 yil 6- noyabr.
4. Rahim Hasanov —Tasviriy san‘at asoslari|| Toshkent. 2009 yil.
5. N. Saidaxmedov —Yangi pedagogik texnologiyalar||. Toshkent —Moliya|| 2003 yil.
6. Muslimov N. A. va boshqalar. Innovatsion ta`lim texnologiyalari. Toshkent. —Sano- standart|| nashriyoti. 2015 yil 81 b.